
"Guliston" mahallasida 3 kilometr ga yaqin ichki yo'llar asfalt qilinmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Guliston" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi ichki yo'llarning 2800 metr qismi asfalt qilinishi belgilangan. Hozirda yo'llarni asfaltlashtirish ishlari "Farg'ona ko'priklardan foydalanish" unitar korxonasi ishchilari tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 5 mlrd. 200 mln. so'm mablag' ajratilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-10 09:49:18